

## **DAVLAT VA XUSUSIY IXTISOSLASHGAN MAKTABLARI VA ULARDA TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH**

Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Jumayeva Guliniso Obidjon qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

“Boshlang'ich ta'lism” yo'nalishi 4-bosqich talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada davlat va xususiy ixtisoslashgan maktablari va ularda ta'lim jarayonini boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablar, nodavlat ta'lism tashkilotlari.

Yoshlarning iste'dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallahsga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, iqtidorini ro'yobga chiqarish, uzlucksiz ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lism xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog'lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida” 2018-yil 3-fevraldag'i PQ-3504-sont qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, san'at va madaniyat sohasida ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida joriy etilgan 2019 yil 9 yanvardagi 9-sonli qaroriga mamlakatda davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lism muassasalarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash borasida muhim qadam bo'ldi.



Unga ko'ra qator maktab internatlar va ta'lim muassasalari turli boshqaruv organlari mas'ulligi va tasarrufiga o'tdi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar o'quvchilarni mutaxassislik fanlariga kasbiy yo'naltirishni hamda ularni kelgusida oliv ta'lim muassasalarida o'qishini davom ettirishlari yoki mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun maqsadli tayyorlashni nazarda tutadigan, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, o'quv rejalarini va ta'lim dasturlari talablariga muvofiq ravishda o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan davlat ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachilik bo'linmasida shaxsiy g'azna hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shtampga, blankalarga ega bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, o'z ustaviga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga umumiy rahbarlik qiladi, jumladan, ularni tashkiliy va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlaydi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi, o'quv-metodik jarayonini muvofiqlashtiradi hamda faoliyatini nazorat qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning samarali faoliyat ko'rsatishida, amaliyotlarni tashkil etishida hamda bitiruvchilar bandligini ta'minlashida ularga zarur amaliy yordam ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

1.O'quvchilarni mutaxassislik fanlaridan chuqurlashtirilgan va kasbga yo'naltirilgan holda o'qitish, ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar faoliyatining maqsadi hisoblanadi.



2.Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning vazifalari hisoblanadi:

- o‘quvchilarni san’at va madaniyat yo‘nalishida tanlagan kasblari bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq sifatli o‘qitishni tashkil etish;
- o‘quvchilarning kelgusida oliv ta’lim muassasasida o‘qishini davom ettirishi yoki tanlagan kasbi va ixtisosligiga muvofiq mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun yuqori darajada sifatli bilimlar olishi va kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydigan davlat ta’lim talablari doirasida ixtisoslashtirilgan o‘quv dasturlarini amalga oshirish;
- san’at va madaniyat sohasini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash, qonun hujjatlariga muvofiq ta’lim masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;
- yoshlarning izchil intellektual, madaniy va ma’naviy-axloqiy kamol topishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ularni ona-Vatanga, yuksak fuqarolik, insoniylik fazilatlariga, milliy g‘oyalarga, o‘z xalqining ma’naviy-tarixiy, umumbashariy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarash va fikrashga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda o‘quv jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi va Xalq ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan o‘quv rejalarini va dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

O‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari va mahoratini hamda san’at va madaniyat sohasida olgan boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlash maqsadida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy e’tibor ularning professional darajasini oshirishga qaratiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qabul kvotalari joylardagi ish beruvchi tashkilotlar tomonidan mavjud kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va talablar asosida, shuningdek, o‘quvchilarning va ota-onalarining xohish va istaklarini inobatga olgan holda ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning bergen takliflariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda o‘qish o‘zbek, qoraqalpoq va rus tilida olib boriladi, sinflardagi o‘quvchilar soni 25 — 30 nafarni tashkil qiladi. Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar ta’lim yo‘nalishlari xususiyatiga ko‘ra, mutaxassislik fanlarining amaliy mashg‘ulotlari kichik guruhlarga bo‘lingan holda hamda yakka (individual) tartibda olib boriladi.



Maktablar va maktab-internatlarning namunaviy o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Xalq ta'lifi vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Fan dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi, o'quv-tarbiyaviy ishlar hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish davlat ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda hamda ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishning turli zamonaviy shakllari va interfaol usullaridan foydalilaniladi. Ta'lim berishda o'quv jarayonini madaniyat, san'at va musiqa muassasalarining ijodiy jamoalari bilan bog'lashga doir tashkiliy, ilmiy-metodik ishlar olib boriladi.

Mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari soatbay haq to'lash asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga jalg' etilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning rahbar xodimlari, ishchi-xodimlari, o'qituvchilari hamda konsertmeysterlarining lavozim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Tegishli oliy ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxslar ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar. Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga o'qituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga umumiyo'rtta ta'lim va ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha pedagogik ish stajiga ega bo'lgan va tanlovdan o'tgan malakali pedagog kadrlar o'qituvchilik lavozimiga tayinlanadi. San'at va madaniyat yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan bakalavr va magistr darajasiga ega bo'lgan mutaxassis pedagoglar tegishli kasblari bo'yicha maxsus fanlar o'qituvchisi lavozimiga tayinlanadi. Oliy ma'lumotli bakalavr darajasidagi mutaxassislarga, shuningdek, istisno tariqasida, o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarga (oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlangunga qadar) konsertmeysterlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi.



Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda o‘quvchilar bilimini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

O‘quv yili yakunlangandan keyin ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar o‘quvchilarini har bir bosqichda o‘zlashtirish va ijodiy imtihon natijalari bo‘yicha keyingi sinfga o‘tkazish to‘g‘risida pedagogik kengash tomonidan qaror qabul qilinadi. O‘quvchilarning keyingi sinfga o‘tkazilishi to‘g‘risidagi qaror ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga o‘quvchilarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan joylarda ish beruvchi tashkilotlarning ehtiyojini inobatga olgan holda shakllantiriladigan har yilgi qabul kvotalari doirasida ijodiy sinov asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) ixtisoslashtirilgan maktablar uchun:

-10-sinfdan;

-istisno tariqasida, kasblarning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda: ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovisiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarda yashayotgan, shuningdek, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo‘lgan boshqa voyaga yetmaganlar ularning xulq-atvori, psixologik portreti, yoshi, iqtidori, qobiliyati, san’at turiga bo‘lgan qiziqishlari hamda iste’dodini inobatga olgan holda, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tavsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va uning hududiy boshqarmalarining yo‘llanmasi asosida ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlariga joylashtiriladi.

-bunda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlariga qabul kvotasidan tashqari 5 foizgacha qo‘sishma kvotalar ajratadi;

-5-sinfdan (Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga);

b) ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar uchun:

-1-sinfdan (7 yoshdan boshlab);

-5-sinfdan.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мысление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.
3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.
7. Arziquulova S. Talim-tarbiyada MTM bilan ota-onha hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 140-143.
8. Xudoyberdiyeva D. A. Management Of Service Rendering Organizations And Its Own Characteristics //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 24-25.
9. Zakirova M. J., Abidovna X. D. Effective organization and management of preschool institution activities //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 184-191.
10. Abidovna X. D. THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2022. – Т. 4. – С. 57-60.
11. Abidovna X. D. Features of the formation of services industry management //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 7. – С. 142-148.
12. Аббосов Б. А., Худайбердиева Д. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ "УПРАВЛЕНИЕ" И "МЕНЕДЖМЕНТ" //Проблемы и достижения современной науки. – 2019. – №. 1. – С. 74-75.

